



ZAMONAVIY OLIY TA'LIM TIZIMIDA TYUTORLIK

Mamarajabova Dinora Shavkat qizi

Shuxratova Shaxzoda G'ayratovna

Fozilov Baxtiyor Husnidinovich

Baxtiyor Asilbek Azizovich

University of Business and Science

Davolash ishi fakulteti talabalari

Mustaeva Dilfuza Mamarajabovna

Ilmiy rahbar:

Tyutor, oliy toifali pedagog

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

Toshkent, O'zbekiston

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18754142>

Annotasiya

Ushbu moqolada oliy ta'lim tizimida ta'lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda ta'lim muassasasi va talabalar o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash, talabalarning muassasasi hayoti va ta'lim jarayoniga moslashishiga ko'maklashish, ularga uslubiy, ijtimoiy va psixologik yordam ko'rsatish va talabalarda tanlagan kasbiga yo'naltirishda kumaklashishni o'z oldiga maqsad qilgan tyutorlik faoliyatida talabalarni ilmiy faoliyat olib borishida ustoz va tyutorning yordami yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Konsepsiyasi, tyutor, tendensiya, ilmiy faoliyati So'nggi yillarda mamlakatda o'quv-pedagogik jarayonga innovatsion ilg'or va xalqaro ta'lim standartlarini joriy etish, kadrlar salohiyatini oshirish va professor-o'qituvchilar mehnatini rag'batlantirish, shuningdek ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashni nazarda tutadigan yuridik ta'lim tizimini takomillashtirish bo'yicha bir qator aniq chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ushbu tadbirlarni amalga ishirish maqsadada Respublika Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi –O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF-5847- sonli Farmoni imzolandi. Farmon ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Konsepsiyasi Oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish nomli birinchi paragrifda, fan sohalari bo'yicha professor- o'qituvchilarning kasbiy muloqot maydonchalarini yaratish, ta'lim sifatini ta'minlash jarayoniga talabalarni keng jalb etish hamda «tyutorlik» tashkiliy-metodik yordam tizimini joriy etish orqali talabalarning mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantirish belgilab ko'yilgan

Ota-ona o'z bolalari uchun doimo qayg'urgani singari ta'lim muassasalari ham bugun talabalarning ilm olishi, kelgusi faoliyatini to'g'ri belgilashiga mas'ullikni his etadi. Talabaga ta'lim berish bilan birga, darsdan bo'sh vaqtida nimalar bilan bandligi, qanday muhitda yashashi, uning fanlardan tashqari qiziqishlari — hammasi oliy o'quv yurti uchun muhim.

Xo'sh, bu jarayonda o'tgan davrda oliy ta'lim muassasalarida qanday ishlar amalga oshirildi? Yaqin yillargacha OTMlarda murabbiylik tizimi asosida ish yuritilardi. Bu tizimda professor-o'qituvchi xohlasa-xohlamasa majburiy yuklama sifatida akademik guruhlariga biriktirilgan. Bu majburlov yuklamasidan tashqari, o'qituvchi sifatida o'zining katta mas'uliyati ham turgan. O'qituvchi bir kunda uchta darsi bo'lsa, biriktirilgan guruhlariga faqat tanaffus vaqtida eshikdan mo'ralab yoki guruh sardoridan shunchaki "kim bor, kim yo'q"ligini bilish,

“nima muammo bor”ligini so’rashdan ortmagan. Qolaversa, bu tizimda oylik maoshning 25 foizigacha ustama haq to’lash belgilangan bo’lsa-da, kamdan-kam hollarda 20 foizgacha to’langan, aksariyat hollarda esa ishiga yarasha 5-15 foiz haq to’langan, xolos.

Bugun ham oliy o’quv yurtlarida talabalarning mustaqil ta’lim olishini rivojlantirishga ko’maklashuvchi murabbiylar ish olib bormoqda. Biroq endi ular guruh murabbiyi emas, balki tyutor maqomida. Tabiiyki, ularning vazifasi ham avvalgilaridan farq qiladi.

Davlat oliy ta’lim muassasalarida tyutorlik tizimi joriy qilinganiga ko’p bo’lmadi. Prezidentimizning 2019 yil 8 oktyabrdagi “O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi farmoni hamda Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirining shu asosda 2021 yil 30 sentyabrda qabul qilingan buyrug’i va nizomi yangicha tizimga asos bo’lgan edi. Bugun bir qancha OTMLar qatori Toshkent davlat tibbiyot universitetida ham tyutorlar ishlamoqda. Ayni kunda ularning soni 150 nafardan oshdi.

Guruh murabbiyligidan — tyutorlikka

Hozirgi globallashuv sharoitida barcha sohalarining tayanchi, poydevori ta’limga borib taqaladi. Chunki aynan ta’lim dargohlaridan jamiyat uchun kerakli va uni boshqaradigan yetuk mutaxassislar yetishib chiqmoqda. Zamon talabiga mos, irodali, har tomonlama mulohazali, manfaatlari bunyodkorlik g’oyasiga sodiq yosh kadrlarni tarbiyalash bugungi kun ta’lim muassasalari oldida turgan dolzarb vazifalardan sanaladi.

Tyutorlik tizimi ham shu maqsadlarga yo’naltirilgan. U oliy ta’lim muassasasida tarbiya jarayonini tizimli va samarali amalga oshirishning muhim shakli va vositasidir. Tyutor esa talabalarning shaxsiy rivojlanishiga, ta’lim muassasasi, respublika va xalqaro miqyosdagi tanlov va olimpiadalarda munosib ishtirok etishiga, shuningdek, ularning bo’sh vaqtini mazmunli o’tkazishiga ko’maklashuvchi pedagog bo’lib, u yigit-qizlarni kasbga yo’naltirish, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, turli ilmiy to’garaklarga jalb etish hamda muammo va kamchiliklarini o’rganib, ularga atroflicha yechim topish bilan shug’ullanadi.

Har qanday yangilik kabi bu yo’nalishning ham kelib chiqish tarixi bor. Manbalarda ta’kidlanishicha, dastlabki tyutorlar XII asrda Angliyaning Oksford va Kembrij universitetlarida paydo bo’lgan. Atama ingliz tilidan olingan va “uy o’qituvchisi, o’qituvchi, murabbiy, vasiy” ma’nolarini anglatadi. “Tyutorlik” so’zi insonning shaxsiy ta’limini qo’llab-quvvatlashni anglatadi. Bu juda nozik, “xususiy” ish faoliyatidir.

Rus tadqiqotchisi N.V.Ribalkinaning fikricha, XVI asr oxiriga kelib, tyutor universitet ta’limi tizimida qo’l ostidagi talabalarning tarbiyasiga mas’ul muhim shaxsga aylanadi. XVII asrda tyutor faoliyati ko’lami yanada kengayib, unga ta’lim berish vazifalari ham yuklanadi. U talabaga qaysi amaliy mashg’ulot va ma’ruzalarga kirishni aniqlab beradi, talabalar darsni qoldirmay yaxshi o’qishi va imtihonlarga tayyor bo’lishini nazorat qilib boradi. XVII asrdan tyutorlik tizimi rasman ingliz oliy ta’limi tizimining ajralmas qismi sifatida tan olinib boshlagan.

Ma’lumotlarga qaraganda, zamonaviy Oksfordda 90 foiz, Kembrijda esa 75 foiz tyutorlar 1 yoki 2 talaba bilan ish olib boradi. Ular maxsus ma’lumotga ega bo’lmasa-da, talabalarga ham o’qish davomida, ham ta’til paytida rahbarlik qilish, ma’nan ustozlik qilish kabi vazifalarga mas’ul hisoblanadi.

Aniqrog’i, tyutor ishining asosiy shakli talaba bilan individual va jamoada ishlash yoki unga ta’lim-tarbiya maslahatchisi bo’lishdan iborat. Tyutorga yetakchilik, tashkilotchilik, tashabbuskorlik, intiluvchanlik, notiqlik mahorati, muloqotga kirishish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya va innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan ishlash bo’yicha malakaga

ega bo'lish, ta'lim-tarbiya jarayoniga doir normativ-huquqiy hujjatlarni bilish kabi bir qator umumiy talablar qo'yiladi.

Tyutor-talabaga eng yaqin ko'makchi

Talabalar birinchi bosqichga qabul qilinishi yoki o'qishini ko'chirish orqali kelgani bois, u bilan bog'liq ma'lumotlar bazasi shakllantirilmagan bo'ladi. Har bir tyutor o'ziga birlashtirilgan akademik guruhdagi talabalar bilan individual o'tirib, universitet yoki dekanat tomonidan berilgan ma'lumotlar shkalasi, jamlanma shakli bo'yicha uning ism-sharifidan tortib to yashash manzili, qiziqishlari, yaqin qarindoshlari, umuman, barcha ma'lumotlarni so'rab, belgilangan ma'lumotlar bazasini to'ldiradi. Bu ishda tyutorning mas'ulligini yanada oshirish ahamiyatli. Chunki talabaning berilgan ma'lumoti aniqligi, to'g'ri keltirilgani, rasmiylashtirishda xatolikka yo'l qo'yilmasligi e'tiborni kuchaytirishni talab qiladi.

Ba'zan talabalar, ayniqsa, birinchi bosqich va hatto katta kurslarda oliygohning shart-sharoitidan xabardor emasligiga guvoh bo'lamiz. Mana shunday paytda unga yo'l ko'rsatib turuvchi shaxs kerak bo'ladi. Talabalar turar joylari, axborot-resurs markazi, talabaning darsdan bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga yo'naltirilgan turli to'garak, klublar, sport majmuasi, oliygoh muzeyi, madaniyat va musiqa zallari va boshqalar bilan yaqindan tanishtirish lozim.

Yigit-qizlar dastlabki o'n kunda qiziqishlari doirasida zarur binolar, shart-sharoitlar bilan tanishib borishiga erishish kerak. Bu uning dastlabki kunlardanoq o'qish va izlanishlarini bir maromda tashkil etish va davom ettirish imkoniyatini yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

Oliygozlarda talabalar qiziqishini inobatga olish ham muhim ahamiyatga ega. Bugungi zamonaviy tizim tyutorlari talabaning bo'sh vaqtini maqsadli tashkil etishda vaqtbay emas, balki soatbay, minutbay mexanizmini qo'llagan holda yangicha ruhdagi, motivatsion, samarali tashkiliy-amaliy ishlarni bajarib kelmoqda. Albatta, har bir talabani to'g'ri yo'naltirish, ularning bo'sh vaqtini samarali tashkil etish jamiyat uchun yanada bilimli, salohiyatli kadr yetishtirishga xizmat qiladi. Davlatimiz, oliy ta'lim muassasalari tomonidan nomdor stipendiyalar, grantlar joriy qilib borilmoqda. Prezident, Navoiy, Beruniy, Ibn Sino (va boshqa) nomdagi stipendiyalar shular jumlasidan. Yana xalqaro yoki respublika miqyosidagi grantlar, loyihalarda ishtirok etib, g'olib bo'lish imkoniyati ham mavjud. Buning uchun talabani to'g'ri yo'naltirib, u bilan tizimli ishlash kerak. Bu vazifalar ham tyutorning zimmasiga tushadi.

Tyutor -xolis yo'l ko'rsatuvchi

Talaba qiyofasi. Bu ham tyutorning og'riqli masalalaridan biri. Chunki o'spirin yosh va undan o'tish vaqtida bo'lgan talabalarga yagona kiyim yoki cheklovlarga qaratilgan tartibli, odobli kiyinish gohida malol kelishi mumkin. Intizomni buzish esa uning tyutori universitet rahbariyati, dekanat yoki boshqa mutasaddilardan tanbeh eshitishiga olib keladi. Shu bois, tyutor har bir oliy ta'lim muassasasida qabul qilingan odob-axloq qoidalari kodeksi va ichki tartibqoidalar asosida talabani tartibga chaqirib turishi, tashqi ko'rinish borasida ham maslahatlar berishi lozim. Jarayonda samarali metodlar orqali talabalar dunyoqarashini shakllantirish, psixologik portretini yaratgan holda ish olib borish muhim vazifalardandir.

O'tgan yilning 17 noyabridan 15 dekabriga qadar hududlarda yurtimizdagi 140 dan ortiq oliy ta'lim muassasasi tyutorlari va dekan o'rinbosarlari uchun tashkil etilgan o'quv seminar va seminar-treninglarda trenerlar safida ishtirok etdim. Jarayon juda qizg'in va samarali o'tdi. Yangi tashkil etilgan tizimda faoliyat boshlagan tyutorlar o'z vazifasini bajarishda dastlab yoki tez-tez uchrab turadigan masalalar hamda ularning yechimlari, dekan o'rinbosarlarining

tyutorlar bilan hamkorlikda ishni qanday tashkil etishi borasidagi amaliy mexanizmlar zamonaviy metodlar orqali muvaffaqiyatli qilinadi, o'rganildi.

Umuman, tyutorlikka bilimli, dunyoqarashi keng, pedagogik va psixologik tajribaga ega munosib xodimlar tanlanganiga guvoh bo'ldik. O'ylaymanki, yangi tashkil etilgan tizim vakillari oldiga qo'yilgan vazifani uddalayapti. Eng asosiysi, ular talaba-yoshlarning yaqin ko'makchisi, ta'lim jarayonida xolis yo'l ko'rsatuvchisiga aylanmoqda.

Адабиётлар:

1. Абашева Д. В. Систематизирующая роль тьютора в разработке модели проекта «Переподготовка учителей-гуманитариев» // Гуманизация образования в междисциплинарном взаимодействии. – Чебоксары, 1998. – С. 113–116.
2. Александрова Е. А., Андреева Е. А. Модернизация классической модели тьюторства в России, странах Европейского союза и Ближнего Востока. – М.; Тверь: СФК-Офис, 2013. – 160 с.
3. Беспалова Г. М. Тьюторское сопровождение школьника [Электронный ресурс]. – URL: <http://www.thetutor.ru/biblioteka/biblioteka/tyutorstvo-vosnovnoj-shkole/177-tyutorskoe-soprovozhdenieskolnika.html> (дата обращения: 14.09.2015).
4. Вакуленко Л. С. Дошкольная логопедическая служба в свете инклюзивного обучения // Логопед. – 2011. – № 4. – С. 11–18.
5. Волкова Г. А., Ярмакович М. А. Принципы и содержание логопедической работы с детьми, страдающими общим недоразвитием речи, в условиях дошкольного детского дома // Речевые и нервно-психические нарушения у детей и взрослых. – Л.: Просвещение, 1987. – С. 3–11.
6. Гершунский Б. С. Философия образования для XXI века. – М.: Совершенство, 1998. – 232 с.
7. Гребенникова В. М. Педагогическое проектирование как инновационный способ управления образовательным учреждением // European Social Science Journal. – 2012. – № 10. – С. 78–85.
8. Долгова Л. М. Тьюторство в аспекте результативности образования [Электронный ресурс] // Тьюторство: идеология, проекты, образовательная практика. – М., 2004. – URL: <http://www.thetutor.ru/biblioteka/biblioteka/tyutorstvo-v-dopolnitelnom-professionalnom-obrazovanii/159-tyutorstvo-v-aspekte-rezultativnosti-obrazovaniya.html> (дата обращения: 15.08.2015).
9. Ковалева Т. М. О тьюторской деятельности в современном высшем образовании // Тьюторство в открытом образовательном пространстве высшей школы: материалы Всероссийской научно-практической конференции. – М., 2008. – С. 5–14.
10. Ковалева Т. М., Кобыща Е. И., Попова (Смолик) С. Ю., Теров А. А., Чередилина М. Ю. Профессия «тьютор». – М.; Тверь: СФК-офис, 2012. – 246 с.
11. Колосова Е. Б. Тьютор как новая педагогическая профессия. – М.: Библиотека «Первого сентября», 2008. – 30 с.